



SAMARQAND VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Doimiy aholi soni. Samarqand viloyati doimiy aholisi soni 2020 yil 1 yanvar holatiga 3 878,0 ming kishini tashkil etib, 2020 yil boshidan 79,1 ming kishiga yoki 1,2 % ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 1438,3 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 37,1 %), qishloq aholisi soni 2439,7 ming kishini (62,9 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:
2020 yil yanvar-dekabr

Doimiy aholi soni **79,1 ming kishiga** ko'paydi.

Tirik tug'ilganlar soni **101,2 ming nafarni** tashkil etdi.

16,5 mingta vafot etganlar qayd etildi.

FHDYO bo'limlarida **36,2 mingta nikoh** va **3,5 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Samarqand viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar (yanvar-dekabr, ming kishi)

	2018 y.	2019 y.
Doimiy aholi soni, (yil oxiriga)	3 798,9	3 878,0
Tug'ilganlar	98,9	101,2
Vafot etganlar	16,2	16,5
Aholining tabiiy o'sishi	82,7	84,7
Kelganlar	11,9	8,0
Ketganlar	15,6	13,6
Migratsiya sal'dosi	-3,7	-5,6
Tuzilgan nikohlar, ming birlik	37,5	36,2
Nikohdan ajralishlar, ming birlik	3,7	3,5
<i>1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille</i>		
tug'ilish	26,2	26,4
o'lim	4,3	4,3
aholining tabiiy o'sishi	21,9	22,1
tuzilgan nikohlar	10,0	9,4
nikohdan ajralishlar	1,0	0,9



SAMARQAND VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Doimiy aholi soni


(1 yanvar holatiga, ming kishi)

	2019 yil	2020 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Samarqand viloyati	3 798,9	3 878,0	102,1
Samarqand sh.	538,2	546,8	101,6
Kattaqo'rg'on sh.	88,0	89,6	101,8
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	155,5	158,7	102,1
Bulung'ur	182,8	186,3	101,9
Jomboy	167,5	171,9	102,6
Ishtixon	247,7	253,2	102,2
Kattaqo'rg'on	267,0	272,3	102,0
Qo'shrabot	128,3	131,1	102,2
Narpay	208,7	212,4	101,8
Payariq	244,1	249,6	102,3
Pastdarg'om	346,0	353,2	102,1
Paxtachi	141,3	143,9	101,8
Samarqand	246,3	251,5	102,1
Nurobod	147,0	149,8	101,9
Urgut	494,6	507,2	102,5
Tayloq	195,9	200,5	102,3

2019 yil yanvar-dekabr Demografik holat 2

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi


(2020 yil 1 yanvar holatiga; viloyat jami aholisiga nisbatan, %da)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020 yil 1 yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Samarqand shahrida viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,1 %ni tashkil etib, keyingi o'rinlarda Urgut 13,1 %ni, Pastdarg'om 9,1 %ni va Kattaqo'rg'on tumanlarida 7,0 %ni tashkil etgan.

Tug'ilish. 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida 101 198 nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 26,4 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega oshganligi (2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 26,2 promille bo'lgan) kuzatildi.


Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va tug'ilish koeffitsiyenti
(2019 yil yanvar-dekabr)



Ma'lumot uchun: *Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik*

muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.


Hududlar kesimida tug'ilganlar soni (yanvar-dekabr, kishi)




Vafot etganlar. 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida 16 502 kishining o'limi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga

nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,3 promilleni tashkil etdi va 2018 yilning mos davriga nisbatan o'zgarish kuzatilmadi (2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 4,3 promille bo'lgan).


Samarqand viloyati bo'yicha vafot etganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-dekabr)



Samarqand viloyati bo'yicha vafot etganlar soni (yanvar-dekabr, kishi)




Hududlar kesimida go'daklar o'limi koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-dekabr holatiga; 1000 tirik tug'ilganga nisbatan)



2019 yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 61,5 foizi - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,2 foizi - o'simtalardan, 5,6 foizi - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,7 foizi - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 6,5 foizi - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,3 foizi - yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 13,2 foizi - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 714 nafarni tashkil etib, ularning 64,1 foizi - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 15,3 foizi - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 11,8 foizi - tug'ma anomaliyalardan, 2,5 foizi - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,5 foizi - yuqumli va parazitlar kasalliklardan, 1,0 foizi - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 3,8 foizi - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (2019 yil yanvar-dekabr holatiga; jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



- Qon aylanish tizimi kasalliklari
- Boshqa kasalliklardan
- Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan
- Yuqumli va parazitlar kasalliklaridan
- O'simtalardan
- Baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan
- Nafas olish a'zolari kasalliklaridan

Tabiiy o'sish. 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 84 696 kishini tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 2 282 kishiga (2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 82 414 kishi bo'lgan) o'sgan.




Nikoh. 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 36 159 kishi nikohi qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 9,4 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Payariq (3,9 %), Bulung'ur (3,3 %), Urgut (1,3 %) va Paxtachi tumanlariga (0,6 %) to'g'ri kelmoqda.

Samarqand viloyati bo'yicha qayd etilgan nikohlar

(yanvar-dekabr, kishi)




Nikohdan ajralishlar. 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 3 468 ta nikohdan ajralishlari qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,9 promilleni tashkil etdi.

2018 yilning mos davriga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyentining sezilarli darajada o'sishi Paxtachi tumanida (0,7 dan 0,9 promillega), aksincha kamayish Samarqand shahri (1,7 dan 1,5 promillega) va Ishtixon (1,0 dan 0,8 promillega) tumanlarida kuzatildi.


Hududlar kesimida nikoh tuzganlar va nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti

(2019 yil yanvar-dekabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, proille)



Samarqand viloyati bo'yicha nikohdan ajrashganlar soni

(yanvar-dekabr, birlikda, kishi)





SAMARQAND VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Migratsiya. 2019 yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 7 963 kishini ko'chib ketganlar soni esa 13 595 kishini tashkil etdi. Migratsiya sal'dosi minus 5 632 kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida minus 3 722 kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (*kishi*)

	2018 yil yanvar-dekabr	2019 yil yanvar-dekabr
Ko'chib kelganlar	11 927	7 963
Ko'chib ketganlar	15 649	13 595
Migratsiya sa'ldosi	-3 722	-5 632

Migratsiya sa'ldosining yuqori darajasi Payariq (minus 849 kishi), Kattaqo'rg'on tuman (minus 813 kishi), Urgut (minus 652 kishi), Ishtixon (minus 505 kishi), Bulung'ur (minus 443 kishi), Qo'shrabot (minus 412 kishi), Nurobod (minus 404 kishi), Paxtachi (minus 400 kishi), Oqdaryo (minus 399 kishi) va Pastdarg'om tumanlarida (minus 309 kishi) qayd etildi.

Migratsiya sal'dosining ijobiy darajasi Jomboy (plus 182 kishi) va Samarqand tumanida (plus 84 kishi) kuzatildi.

**Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi**
(71) 230-85-36